

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON YOSHLARINING TA'LIM-TARBIYA
MA'NAVIYATINING O'RNI

Qulmurodova Mehriniso Safarovna,

Ruzi Choriyev Nomidagi Surxondaryo ixtisoslashgan san'at maktab internati
o`qituvchisi

Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishgandan so'ng yoshlar tarbiyasi chin ma'nodagi davlat siyosati darajasigi ko'tarildi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lism-tarbiya tizimini takomillashtirish, yosh avlodni bilimli xar tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish amalga oshirilayotgan siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy islohotlarning mohiyatiga singdirildi. Chunki bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan xuquqiy demokratik davlatni xalqimizning yoshlari uchun qurishga kirishilgan edi. Demak, kelgusida uni bugungi avlod qo'lidan qabul qilib oladigan va boshlangan ezgu ishlarni davom ettiradigan, O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlaydigan, jahon miqyosida uning nufuzi va obro'sini ko'taradigan, o'zbek xalqining hech kimdan kam emasligini amalda namoyish qiladigan avlod ham orzu-umidlarga, istak va niyatlarga munosib bo'lishi lozim edi.

Darhaqiqat, Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, tarixan qisqa muddatda qiyofasi tubdan o'zgargan, milliy va zamonaviy me'morchilik an'analari asosida qayta qurilgan, do'stu dushmanlarimizning havas-hasadini uyg'otgan shahar va qishloqlarda kim yashaydi, yurtimizning yerosti va yerusti boyliklarini qayta ishlayotgan sanoat korxonalarini kim boshqaradi, hosildor dalalar, noz-ne'mat manbai bo'lgan bog'-rog'lar, ming-ming chaqirim ravon yo'llar kimga xizmat qiladi, katta xarajatlar hisobiga bunyod etilayotgan zamonaviy o'quv dargohlarida kimlar voyaga yetayapti, bugun katta hayot ostonasiga qadam qo'yishga shaylanuvchi yigit-qizlar katta mashaqqat va zahmatlar hisobiga bunyod etilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning qadriga yetadimi, uni asrashga, ko'paytirishga qodirmi, degan savollarga aniq javob o'z mehnatlarining besamar ketmaganiga, irodasi mustahkam, imoni butun, muhimi, xalqiga sodiq va fidoyi avlod kamol topayotganiga ishonch hosil qilishning o'zi ham katta baxtdir.

Prezident bu sohada masalaning ijtimoiy-siyosiy tarafiga e'tiborini qaratdi:

"Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda,-dedi u,-Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqla, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z toa-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Qarang, qanday bebaho oltinga teng so'zlar!" (1).

Prezidentimiz Murojaatnomada yoshlar masalasiga alohida to'xtalar ekanlar: mamlakatimizda tub o'zgarishlar ro'y berayotganligi, bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yayotganligini, yoshlar bilan ishslash samaradorligini baholash bo'yicha yangicha ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerakligini qayd etib o'tdilar.

Jumladan, Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom

VOLUME-2, ISSUE-2

turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlargacha o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rinni topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzlusiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin "Dovyurak va botir insonlar keljakda sodir bo'ladigan qiyinchiliklardan qo'rqmaydi", deb bejiz aymagan.

degan shoir odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi kerak.

Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi murojaatnomada chuqur ifodasini topdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mustaqilligining yangi bosqichga ko'tarilganini, taraqqiyotida ulkan o'zgarish va jadallashuv yuzaga kelganini ko'rib turibmiz. Shunday paytda yoshlar ta'lim-tarbiyasi masalasi ham e'tibordan chetda turmaydi, aksincha, katta rag'bat kasb etadi. Chunki har jabhada katta kuch bo'lib maydonga chiquvchi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, mustaqil va yangicha fikrlaydigan, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan navqiron yoshlar davlatimizning, xalqimizning tayanchi va suyanchidir. Shu sababli istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga dolzarb vazifa sifatida qaraldi va bugungi kunda ham shu darajada ahamiyat qaratilmoqda. Bu vazifaning dolzarbligini Prezident Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlarida ham yaqqol his etamiz: "Ayniqsa, kuni kecha Yoshlar forumida o'g'il-qizlarimizning yonib turgan ko'zlarida ulkan azmu shijoatni, bilimga tashnalik va yangilikka

VOLUME-2, ISSUE-2

intilishni ko'rib, yanada ruhlandim va ulardan kuch oldim. Ibn Sino bobomiz aytgan dovyurak va botir yoshlari aynan shu farzandlarim ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini, yoshlarmizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz.

Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarmiz bilan bирgalikda barpo etamiz"

Prezident Sh.Mirziyoevning murojaatnomada yoshlarga oid davlat siyosati, ular ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq yangicha qarashlar, tarbiyaning keng qamrovli bo'lishi, bunda moddiy va madaniy meros, xalq qadriyatları, adabiyot va san'at, sport, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, shu asosda bugungi kun yoshlarning g'oyaviy-ahloqiy tarbiyasini yaxshilash bilan bog'liq masalalar keng qamrovli yoritilganidan mammunligimizni izhor etmoqchi bo'ldik.

Tarixga nazar tashlasak, insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat hayoti va taraqqiyotida ma'naviy soha nihoyatda muhim o'rin tutganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» acapida ma'naviyatning inson barkamolligida, jamiyat taraqqiyotida nechog'lik muhimligi xususida o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tgan. Asarda Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, hayotga kirib borishiga bog'liqidir, deyiladi. Darhaqiqat, har qanday jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yetuk va barkamol avlodiga bog'liqidir. Ushbu fikr tarix sinovida tasdiqlanib kelgan haqiqatdir. Ma'naviyat millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqliy intellektual va sobit hissiy dunyosidir.

"Barkamollik-kamolot, balog'atga erishgan, bekamu ko'st, yetuk, mukammal, komil, ma'rifatli kishilarga nisbatan qo'llanadigan tushuncha. U insonning aqliy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, o'zi tanlagen kasb-hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, Vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishini ham anglatadi"[1].

Ulkan bir tizim bo'lgan inson ma'naviy olamining huquq va axloq deb atalgan ikki atributi borki, bularsiz inson ma'naviy olamini tasavvur qilish mushkuldir. Bu ikki tushuncha insonning jamiyatga bo'lgan munosabatining asosini tashkil etadi.

Axloq va huquq insonlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro munosabatni tartibga soluvchi talablar, qoidalar, me'yorlar yig'indisidir. Ulardan birinchisi axloq - bu insonga ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan foyda berib, iymon pokligiga erishtiradigan tushuncha. Axloq – o'z hatti-harakati, kilmishi, yurish-turishi uchun ma'nан yetuk jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini anglatadi, vijdon, tarbiya kabi me'yorlar bilan belgilanadi.

Har qanday aqli raso kishi o'zini o'z hayoti, yaqinlari va yurtining kelajagi uchun mas'ul deb biladi. Mas'uliyat tushunchasi axloqning asosiy kuchi va tayanchidir, chunki aynan mas'ullik hissi bizni befarqlikdan himoya qilib, javobgarlikka undaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: "O'zbekiston" HMUY, 2017. I TOM.

VOLUME-2, ISSUE-2

2. Babamuratov, E., Ul mashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
3. Jovliev, J. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51-55.
4. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 54-56.
5. Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
6. Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.
7. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
8. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
9. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
10. Boynazarova , N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH